

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>T.S.Axmedova</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati .....	214
<b>Z.O.Qosimoy</b>	
Oliy tibbiy ta'lim talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlarini.....	218
<b>M.A.Usmanov</b>	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
<b>A.A.Minavarov</b>	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
<b>G.K.Usmanova</b>	
Tibbiyot ta'lim muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati .....	231
<b>X.A.Madaminov</b>	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchligi muammosi.....	234
<b>C.Y.Анварбекова</b>	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике.....	238
<b>Д.М.Азимова</b>	
Дистанционное образование в обучении иностранному языку: эффективность и критерии .....	242
<b>Д.Ф.Керимов</b>	
Анкетирование как метод исследования использования IT технологий в образовательном и тренировочном процессе .....	247
<b>S.A.Mirzaqobilova</b>	
Inklyuziv ta'limda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	255
<b>J.Q.Mirzajonov</b>	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati .....	260
<b>F.O'.Toshboltaev</b>	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni .....	264
<b>R.D.Mustayev</b>	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi .....	267
<b>S.A.Xayrullayev</b>	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi .....	271
<b>N.M.Aliyev</b>	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlarini.....	275
<b>G.I.Otaboyeva</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlarini .....	279
<b>N.T.Abdullajonova</b>	
Germenevtik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati .....	282
<b>Y.H.Teshayeva</b>	
Ilmga yo'g'rilgan umr .....	286
<b>Sh.B.Sattorova</b>	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
<b>M.F.O'rmonova</b>	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida) .....	295
<b>S.A.Rahmonberdiyeva</b>	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari .....	298
<b>Sh.G'.Xasanov</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash.....	303



UO'K: 378.014.15

**TIBBIYOT TA'LIM MUASSALARI TALABALARIDA GIGIENIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURATI****ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ГИГИЕНИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ****PEDAGOGICAL NEED OF DEVELOPING HYGIENE COMPETENCE IN STUDENTS OF MEDICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS****Usmanova Gulnoraxon Kamoliddinovna**

Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Maqolada tibbiyot ta'lim muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari va texnologik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, tibbiyot ta'lim muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati tahlil qilingan.

**Аннотация**

В статье изучены теоретико-методологические основы развития гигиенической компетентности у студентов медицинских образовательных учреждений, педагогические механизмы и технологические основы развития. Также проанализирована педагогическая необходимость развития гигиенической компетентности у студентов медицинских образовательных учреждений.

**Abstract**

The article examines the theoretical and methodological foundations of the development of hygienic competence in students of medical educational institutions, the pedagogical mechanisms and technological foundations of development. Also, the pedagogical necessity of developing hygienic competence among students of medical educational institutions was analyzed.

**Kalit so'zlar:** tibbiyot, gigiena, reproduktiv, gigienik kompetentlik, texnologiya, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, monitoring, didaktik, loyihalash, ekspert baholash, pedagogik eksperiment.

**Ключевые слова:** медицина, гигиена, репродуктивная, гигиеническая компетентность, технология, совершенствование, педагогический, технологический, модель, мониторинг, дидактический, проектирование, экспертная оценка, педагогический эксперимент.

**Key words:** medicine, hygiene, reproductive, hygienic competence, technology, improvement, pedagogical, technological, model, monitoring, didactic, design, expert assessment, pedagogical experiment.

**KIRISH**

Dunyoning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotining yangi bosqichida fan-texnika yutuqlari, biotexnologiyalarning rivojlanishi hamda ularning tibbiyot va sog'liqni saqlash va amaliyotiga keng joriy qilinishi natijasida yuzaga keladigan xavflarni aniqlash zarurati bugun barcha fan sohalari oldiga ham yechimini kechiktirib bo'lmaydigan masalalarni qo'yimoqda. Tibbiyotga bozor munosabatlarining kirib kelishi, farmakologiyaning jadal rivojlanishi, tibbiyot va farmakologiyada xususiy sektor ulushi ortishi, sog'liqni saqlash sohasidagi degumanizatsiyalashuv jarayonlari, yangi ilmiy va tibbiy texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy muammolari, inson va tabiat munosabatlaridagi muvozanatning o'zgarishi, ekologik muammolarining keskinlashuvi, turli pandemiyalarning o'tkirlashuvi gigienik dunyoqarashni shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Respublikamiz va xorijiy davlatlarning olimlari tomonidan talabalarning gigienik kompetentlik masalalarini V.R.Potter, V.I.Vernadskiy, P.Tishenko, V.V.Fedorin, I.Azimov, U.B.Baxodirova, M.N.Ibodova, O.Mavlonov, A.K.Raximov, J.O.Tolipova, N.J.Toshmanov, SH.Xasanova, G.S.Ergasheva, L.Qoraxonova, A.T.G'ofurov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

### NATIJAR VA MUHOKAMA

Tibbiyot ta'lim muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni shakllantirishga tayyorlash zamonaviy madaniyatning murakkab tarkibiy qismi bo'lib, ilm-fan va biotibbiy texnologiyalar yutuqlarining axloqiy oqibatlarini o'rganuvchi, tahlil qiluvchi, insoniyatning jamiki "tiriklik"ka oqilona munosabatini ifodalaydigan ta'limot. Jamiyat taraqqiyotiga bioetikaning ta'sirini tahlil qilish, bioetikaning mohiyatini tushunish va uning ilmiy, falsafiy, axloqiy bilimlar tizimida tutgan o'rnini tushunishdan boshlanadi. Bioetikaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish, uning ta'limot, fan, nazorat mexanizmi sifatidagi mohiyatini kengroq tushunishga imkon beradi.

XX asrda fan-texnika taraqqiyoti yanada tezlashdi. Insonlar, hayvonlar va o'simliklar ustida o'tkazilgan yangi ilmiy taqdidotlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy tizimlarida keskin o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Masalan, kasalliklar spektrining o'zgarishi va uzoq umr ko'rish masalalari evtanaziya doirasida cheklandi. Shu bois xatto 90-yillarning boshlarida ham insoniyat genetikasini tadqiq qilishdagi ilmiy izlanishlar va ularning qo'llanilishidagi axloqiy muammolar ko'p olimlarni tashvishga solgan edi. Jamiyatda bioetika sohasi bilan bog'liq ko'plab muammolarni individual ravishda hal qilish mumkin emas va uni davlat siyosati darajasiga olib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Xullas, birinchidan, hozirgi vaqtda jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotini yanada chuqurroq anglashga bo'lgan qiziqish kengayib, tobora o'sib borayotgani sir emas. Insonlarning mavjud bilimlarni o'zlashtirishi va ularni amaliy hayotda qo'llash natijasida huquqiy madaniyat, tibbiy madaniyat va atroh-muhitga oqilona munosabat sifatida ekologik madaniyat, butun mavjudlikka ijobiy munosabat sifatida gigienik kompetentlik vujudga keladi. Bu borada gigienik kompetentlikning insonparvarlashuviga o'zining munosib xissasini qo'shadi.

Ikkinchidan, gigiyena muammolarini bir tomonlama hal qilish, jamiyatdagi turli munosabatlardagi muvozanatni buzadigan ijtimoiy-axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa odamning hatti-harakati uchun ma'naviy javobgarlik darajasining pasayishiga, shaxs begonlashuvining asoslanishiga olib keladi. Bioetika sohasi vakillari ushbu axloqiy buzilishdan chiqish yo'lini topishga harakat qilmoqda.

Uchinchidan, gigiyena - inson sog'ligi va hayot sifatiga bevosita va bilvosita zarar yetkazishi mumkin bo'lgan biologiya, tibbiyot, farmatsiya va sog'liqni saqlash sohasida insonlar hamda ularning uyushmalari manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni o'rganadi. Bioetikaning bosh g'oyasiga ko'ra, inson tabiatning bir qismi bo'lib, unga sog'lom ovqat, musaffo havo, toza suv, tabiatning yovvoyi go'shalari zarur. U nafaqat ekologik boylik hisoblangan, balki inson omon qolishining bosh sharti bo'lgan hayvonlar, o'rmonlar, daryo va yerlarsiz hayot kechira olmaydi. Bioetikaning maqsadi - fan va texnika yutuqlaridan faqat inson va tabiat ravnaqi uchun foydalanishni ta'minlaydigan odob-axloq normalari, talablari, tamoyillari va boshqa mexanizmlarni ishlab chiqishdir.

Pedagogika va falsafaning bahs-munozaraga sabab bo'layotgan masalalarini chuqur tadqiq etayotgan soha sifatida biz gigiyenani keltirishimiz mumkin. Mazkur fan sohasi o'zining uzoq o'tmishiga ega bo'lmasa-da, uning muammolari doirasi qadimdan mavjud bo'lgan. Vrach va bemor munosabatlarining axloqiy jihatlari, evtanaziya va o'lim, inson a'zolarini transplantatsiya qilish, homila tushirish (abort), klonlash, irsiy injeneriya muammolarini falsafiy talqin qilish nafaqat jahon falsafasi balki milliy falsafiy tafakkurga xos bo'lgan xususiyatdir. Chunki mazkur muammoga qiziqish shuni ko'rsatdiki, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib falsafa va fan oralig'ida gigienik kompetentlik muammosini o'rganish bo'yicha muayyan ma'nodagi obektiv bilimlar tizimi shakllandi. Shu nuqtai-nazardan hozirgi kunda mazkur masala axloq falsafasining ilmiy tadqiqotlar sohasiga kiritilgan bo'lib, u juda ko'p mutaxassislar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Shuningdek, XX asrning oxirlarida tibbiy adabiyotlarda gigiyenik kompetentlik muammolariga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy risolalar chop etildi.

Tibbiyot ta'lim muassalari talabalarida gigiyenik kompetentlikni shakllantirishga tayyorlash butun biologik olam va unga insonning munosabati natijasida mavjud bo'ladigan muammo va masalalarni o'z ta'sir doirasiga oladi. M.A.Nikulina o'z asarlarida gigienik kompetentlik muammolarini quyidagi guruhlarga ajratadi:

“Tibbiy etika (tibbiyot xodimlarining kasb axloqi);

Insonlar hayoti, sog'lig'i, ruhiy va ma'naviy dunyosi bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarning axloqiy muammolari;

## ILMIY AXBOROT

Gen injeneriyasi, transplantologiya (organ va to'qimalarni ko'chirish), evtanaziya; Sog'liqni saqlash tizimini boshqarish, farmakologiya va xususiy tibbiy xizmat (xususiy tibbiy xizmatda mijoz-bemor manfaatlari) bilan bog'liq masalalar;

Demografik nazorat, reproduktiv salomatlik va oilani rejalashtirish masalalari;

Og'ir kasalliklarning so'ngi bosqichida bo'lgan bemorlarga yordam berish (Xospis va palliativ yordam ko'rsatish markazlari),

Insonning biologik olamdagi (o'simliklar, hayvonlar) ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bog'liq masalalar va boshqalar."

Ushbu tavsiflash gigiyenik muammolarini to'liq o'z ichiga olgan. Bugun dunyoning turli burchaklarida gigiyenik muammolari to'g'risida baxs-munozaralar davom etmoqda. Bu muammolarga ilmiy, axloqiy va diniy yondashuvlar tahlil qilinmoqda.

Gigiyenik kompetentlik asosida axloq tamoyillari va qoidalari yotishi kerak. Zero, bioetika - bu biotibbiyot fanining rivojlanishi va sog'liqni saqlash amaliyotiga eng yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan axloqiy, falsafiy va antropologik muammolarni tadqiq etish sohasidir. Shu boisdan ham bugungi kunda tabiiy hamda sun'iy hayot o'rtasidagi farq va o'zaro aloqadorlik muammosini o'rganishda soha vakillari o'ziga xos ilmiy qarashlarni ilgari suradilar. Jumladan, insonlar hayotini loyihalash va sintez qilish g'oyasi bugungi jamiyatning yangi konsepsiyasini yanada boyitib borayotgan inqilobiy biotexnologiyalarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi.

**XULOSA**

Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti yanada tezlashdi. Insonlar, hayvonlar va o'simliklar ustida o'tkazilgan yangi ilmiy tadqiqotlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy tizimlarida keskin o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Masalan, kasalliklar spektrining o'zgarishi va uzoq umr ko'rish masalalari evtanaziya doirasida cheklandi. Bu jarayon o'zining ijobiy tomonlarini namoyish etish bilan bir qatorda ko'plab ijtimoiy muammolarni ham paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. Bular inson hayotiga aralashuv, salomatligini saqlash yo'lida ilmiy-tibbiy texnologiyalardan foydalanish, yordamchi reproduktiv texnologiyalarning inson nasliga aralashuvi bog'liq axloqiy muammolar, tabiatga nooqilona munosabat natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, salomatlikni saqlash va tibbiy sohada turli darajada ijtimoiy adolatni ta'minlash muammolari, inson huquqlari bilan bog'liq muammolar shular jumlasidandir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Тищенко П. Д. Биовласть в эпоху биотехнологий. – Москва: Наука, 2001. С.108; Тищенко П. Д. Феномен биоэтики // Вопросы философии. – 1992. – № 3. – С.104-113
2. Федорин В. В. Философско-методологический анализ проектов генетического конструирования человека: дис. канд.филос. наук. – Москва. 2017. – 157 с
3. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фан док. Дисс... афтореферат. Тошкент.: 2007. –Б. 132.
4. Хайдаров Ф.И. Муслимов Н. Педагогик кадрлар тайёрлаш истиқболи. Педагогик таълим. Тошкент.: 6-сон 2009. –Б. 8-9.
5. Рахимов Б.Х. Бўлажак ўқитувчида касбий маданий муносабатларини шакллантириш тизими. Тошкент.: Фан. 2005. –Б. 10.